



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (*keyingi o'rinlarda – Vazirlik*) tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalari Vazirlikning ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasi berishi bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat ijtimoiy buyurtmasi – ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun Vazirlik hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida davlat ijtimoiy buyurtmasi amalga oshirish shartnomasini tuzish orqali ishlarni bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga qaratilgan davlat topshirig'i;

ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha (*keyingi o'rinlarda – loyiha*) – sotsial va ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan hamda davlat ijtimoiy buyurtmasi amalga oshirish shartnomasida belgilangan muddatlarda bajariladigan tashkiliy, iqtisodiy va boshqa shakldagi chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olgan loyiha;

davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish bo'yicha tanlov (*keyingi o'rinlarda – tanlov*) – ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan bir nechta nodavlat notijorat tashkilotlaridan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat ijtimoiy buyurtmasini berishning raqobatli usuli;

Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi, loyihalarni ko'rib chiqish, baholash va monitoring qilish vakolatiga ega jamoatchilik organi.

4. Davlat ijtimoiy buyurtmasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va sifatini oshirish;

Ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash;

Innovatsiyalarni joriy etish va tarqatish;

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish;

Yosh olimlar va talabalarning ilmiy loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish;

Ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish.

5. Vazirlikka nodavlat notijorat tashkilotlaridan kelib tushgan loyihalarni ko'rib chiqish, umumlashtirish, baholash hamda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorligini aniqlash Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi (*keyingi o'rinlarda – jamoatchilik kengashi*) tomonidan aniqlanadi.

Vazirlik tomonidan har yili ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasini berish bo'yicha tanlovlar tashkil etiladi hamda o'zining

byudjetdan tashqari mablagʻlari xarajatlari smetasida bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasini berish uchun ajratiladigan mablagʻlar miqdori nazarda tutiladi.

Vazirlik tomonidan bitta davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha boʻlgan miqdorda mablagʻ ajratilishi mumkin.

2-bob. Tanlov oʻtkazish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi

6. Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun Vazirlik tomonidan tanlov oʻtkazish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasi ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq sxema boʻyicha beriladi.

7. Vazirlik tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish uchun tanlov oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi eʼlon tanlov boʻyicha hujjatlar loyihalarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida oʻn ikki ish kuni va koʻpi bilan oʻttiz ish kunidan oldin Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlariga joylashtiriladi.

8. Tanlov oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi eʼlon quyidagi axborotlarni oʻz ichiga oladi:

tanlov tashkilotchisining nomi va manzili;

davlat ijtimoiy buyurtmasining tavsifi;

davlat ijtimoiy buyurtmasini mablagʻ bilan taʼminlash manbalari va miqdori;

davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish muddati;

ishtirokchilarga qoʻyiladigan talablar (shartnoma tuzish huquqiga egalik, soliqlar va yigʻimlarni toʻlash boʻyicha muddati oʻtgan qarzdorlikning, oʻziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik holatining mavjud emasligi, insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi);

ishtirokchilar bilan bogʻlanish uchun Vazirlikning belgilangan bir yoki bir nechta masʼul xodimlari familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi va manzili;

tanlov ishtirokchilari tomonidan loyihalarni berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

loyihalarni rasmiylashtirishga doir talablar;

tanlov gʻolibi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi haqidagi axborot;

tanlovda ishtirok etish uchun loyihalarni davlat tilida va zaruratga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi toʻgʻrisidagi talab;

loyihalarni baholash mezonlari va koʻrib chiqish tartibi;

tanlov ishtirokchilari tomonidan korrupsiya koʻrinishlariga yoʻl qoʻymaslik boʻyicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talablar.

Tanlov oʻtkazish toʻgʻrisidagi eʼlon qonunchilikka zid boʻlmagan boshqa axborotlarni ham oʻz ichiga olishi mumkin.

9. Davlat ijtimoiy buyurtmasi boʻyicha bir necha nodavlat notijorat tashkiloti qoʻshma guruh tuzgan holda umumiy ariza berishlari mumkin. Bunda ularning har birining funksiyalari, bir-biriga nisbatan javobgarligi va loyihani amalga oshirishga qoʻshayotgan hissalarini koʻrsatilishi lozim.

10. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar Vazirlikka ariza beruvchi tomonidan bevosita, pochta orqali yoki elektron koʻrinishda taqdim etilishi mumkin.

3-bob. Tanlov shartlari va uni oʻtkazish tartibi

11. Tanlovda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar bundan mustasno.

12. Tanlovda ishtirok etish uchun nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi hujjatlarni elektron shaklda maxsus axborot resursi orqali Vazirlikka taqdim etadi.

ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakldagi tanlovda ishtirok etish haqida ariza;

davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishning batafsil tasnifi;
davlat ro'yxatidan o'tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;
nodavlat notijorat tashkiloti ustavining nusxasi;
qarzdorlik mavjud emasligi haqida davlat soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnoma;

maxsus ruxsatnoma (litsenziya) nusxasi, agar davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etilsa.

Nodavlat notijorat tashkilotining tashabbusi bilan boshqa hujjatlar (sertifikatlar, o'tkazilgan tekshirishlar bo'yicha ma'lumotlar va shu kabilar) ham taqdim qilinishi mumkin.

13. Tanlov g'olibi nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tanlovga taqdim etilgan loyihalarni o'n ish kuni ichida ko'rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash natijalariga ko'ra aniqlanadi.

Agar Vazirlik jamoatchilik kengashi a'zosi tanlovga loyiha taqdim etgan nodavlat notijorat tashkilotiga aloqador (nodavlat notijorat tashkiloti vakili (xodimi), rahbar organlarining a'zosi yoki ularning yaqin qarindoshi) bo'lsa, ushbu loyihani ko'rib chiqish, umumlashtirish va baholash jarayonida jamoatchilik kengashi yig'ilishi ishtirokchilari tarkibidan ixtiyoriy chiqadi yoki jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan majburan chetlashtiriladi.

14. O'tkazilayotgan tanlov doirasida loyihalarni baholashda Vazirlik jamoatchilik kengashi tomonidan tasdiqlangan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni baholash metodikasidan (keyingi o'rinlarda – Baholash metodikasi) foydalaniladi.

15. Loyihani o'rganish natijalariga ko'ra jamoatchilik kengashi a'zolari har bir loyiha bo'yicha baholash mezonlariga muvofiq baholash varaqasiga ballar qo'yadi.

Baholash varaqalaridagi ballar hisoblab chiqilib, e'lon qilinadi.

Tanlov natijasiga ko'ra eng ko'p ball olgan ishtirokchi tanlovda g'olib deb topiladi.

16. Tanlov natijasiga ko'ra ishtirokchilarning ballari teng bo'lgan taqdirda ular o'rtasida ushbu Nizomda belgilangan tartib asosida qayta tanlov o'tkaziladi.

17. Tanlov natijalari tanlov g'olibi aniqlangan kundan so'ng bir ish kuni ichida Jamoatchilik kengashi qarori bilan tasdiqlanadi. Jamoatchilik kengashi qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashining yig'ilishi bayonnomasi Jamoatchilik kengashi kotibi tomonidan yuritiladi va Jamoatchilik kengashi raisi, kotibi va ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan imzolanadi.

4-bob. To'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi

18. Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organlari tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasi ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha beriladi.

19. Nodavlat notijorat tashkilotlari (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar bundan mustasno) oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohalarida mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risida Vazirlikka ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shakldagi loyiha taklifini kiritadi.

20. Loyiha taklifiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

davlat ijtimoiy buyurtmasining zarurati va uni bajarishning batafsil tasnifi;

davlat ro'yxatidan o'tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

nodavlat notijorat tashkiloti ustavi (nizomi)ning nusxasi;

qarzdorlik mavjud emasligi haqida davlat soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnoma;

maxsus ruxsatnoma (litsenziya) nusxasi, agar davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etilsa.

Nodavlat notijorat tashkilotining tashabbusi bilan boshqa hujjatlar (sertifikatlar, o'tkazilgan tekshirishlar bo'yicha ma'lumotlar va boshqalar) ham taqdim qilinishi mumkin.

21. Jamoatchilik kengashi kiritilgan loyiha taklifini o'n ish kuni ichida quyidagi mezonlar asosida ko'rib chiqadi va baholaydi:

davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risidagi loyiha taklifining Vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi;

oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohalaridagi mavjud muammolarning dolzarbligi va aniq yoritilganligi;

muammolarning ta'sirchan yechimi bo'yicha takliflarning ilmiy asoslanganligi, samaradorligi va noyobligi;

loyiha taklifini amalga oshirish xarajatining asoslantirilganligi;

nodavlat notijorat tashkilotining taqdim qilgan loyiha taklifini amalga oshirish qobiliyati.

Loyiha taklifi jamoatchilik kengashi tomonidan har bir mezon bo'yicha "1" balldan "5" ballgacha baholanadi.

To'plangan ballar jami ballning 81 foizidan yuqorisini tashkil etsa, taklif ijobiy baholangan deb topiladi.

22. Loyiha taklifi jamoatchilik kengashi tomonidan ushbu Nizomning 21-bandidagi har bir mezon bo'yicha ijobiy baholangan taqdirda, bir ish kuni ichida uning tashabbuskoriga davlat organining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish orqali ijtimoiy buyurtma berilishi to'g'risida jamoatchilik kengashining qarori qabul qilinadi.

23. Jamoatchilik kengashi qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashining yig'ilishi bayonnomasi jamoatchilik kengashi kotibi tomonidan yuritiladi va jamoatchilik kengashi raisi, kotibi va ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan imzolanadi.

5-bob. Davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish shartnomasini tuzish

24. Davlat ijtimoiy buyurtmasini beruvchi davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida Jamoatchilik kengashining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish shartnomasi tuziladi.

Shartnomada davlat ijtimoiy buyurtmasini beruvchi Vazirlik va nodavlat notijorat tashkilotining huquq va majburiyatlarini hamda javobgarligini belgilab beriladi.

Shartnoma to'g'risidagi axborot Vazirlik tomonidan maxsus axborot resursiga shartnoma tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

25. Shartnoma quyidagi qoidalarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

davlat ijtimoiy buyurtmasining maqsadi;

davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish muddatlari;

davlat ijtimoiy buyurtmasiga ajratilgan mablag'lar miqdori;

mablag' bilan ta'minlash muddatlari;

davlat ijtimoiy buyurtmasiga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanganlik yuzasidan nazorat shakllari;

hisobotlar berish muddatlari va shakllari.

26. Agar tanlovda g'olib deb topilgan nodavlat notijorat tashkiloti shartnomani imzolashdan bosh tortsa yoki tanlovni o'tkazish davomida o'z faoliyatini tugatgan bo'lsa,

tugatish, qayta tashkil etish jarayonida bo'lsa yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bankrot deb e'tirof etilgan bo'lsa, Vazirlik tanlovda ishtirok etgan va yuqori baho olgan keyingi ishtirokchiga shartnomani imzolashni taklif etishga haqli.

6-bob. Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini monitoring qilish tartibi

27. Vazirlik davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda monitoring qiladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini monitoring qilishga auditorlik tashkiloti jalb qilinishi mumkin.

28. Davlat ijtimoiy buyurtmasini olgan nodavlat notijorat tashkiloti davlat ijtimoiy buyurtmasi bajarilishi yakunlangan kundan boshlab besh ish kuni ichida davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish bilan bog'liq barcha hujjatlarni Vazirlikka taqdim qilishi shart.

29. Vazirlik davlat ijtimoiy buyurtmasini olgan nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ushbu hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida o'rganadi.

O'rganish davomida davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorligi, ya'ni davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishga ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi hamda mablag'larni ajratishdan ko'zlangan maqsadlarga erishilganligi aniqlanadi.

O'rganish natijasi yuzasidan dalolatnoma tuzilib, Vazirlik va davlat ijtimoiy buyurtmasini olgan nodavlat notijorat tashkilot(lar)i rahbar(lar)i tomonidan imzolanadi.

30. Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorligi davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratgan davlat organining jamoatchilik kengashi tomonidan ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq aniqlanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorligini aniqlashdan maqsad davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi hamda berilgan ijtimoiy buyurtmadan ko'zlangan ijtimoiy maqsadlarga erishilishini tahlil qilishdan iborat.

31. Davlat ijtimoiy buyurtmasi samaradorligining maksimal ko'rsatkichi 30 ballni tashkil etadi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorligi to'plagan ballarga qarab aniqlanadi:

- yuqori samaradorlik – 25 va undan yuqori ball;
- o'rtacha samaradorlik – 15 balldan 24 ballgacha;
- samarasiz – 1 balldan 14 ballgacha.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalariga ko'ra yuqori samaradorlikka erishgan nodavlat notijorat tashkiloti davlat ijtimoiy buyurtmasini bergan davlat organi tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan keyingi yillarda o'tkaziladigan davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovlarida ishtirok etishda taqdim qilgan ijtimoiy loyihasi bo'yicha to'plangan umumiy ballga ushbu ballning 10 foizi bir martalik imtiyoz sifatida qo'shib beriladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalari samarasiz bo'lgan taqdirda, nodavlat notijorat tashkiloti davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish uchun ajratilgan mablag'larning 50 foizini Vazirlik hisobvaraqlariga qaytaradi.

32. Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishga ajratilgan mablag'lardan maqsadsiz foydalanilganda, ushbu mablag'lar Vazirlik hisobvaraqlariga to'liq qaytarilishi lozim.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishga ajratilgan mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanish, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan ijtimoiy ahamiyatga molik

ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun Vazirlik va nodavlat notijorat tashkilotining rahbari javobgar bo'ladi.

34. Nodavlat notijorat tashkiloti ushbu Nizom talablari bajarilishiga Vazirlik xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan bo'ysunish tartibida yuqori turuvchi organga yoxud bevosita sudga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartib-tamoyillari bilan bog'liq qoidalarining buzilishi bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlarining shikoyatlari "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

35. Vazirlik tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasini berish sohasidagi ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan munosabatlarga davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik normalari qo'llaniladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligida ijtimoiy ahamiyatga molik
loyihalarni amalga oshirish tartibi
to'g'risidagi nizomga
1-ilova

**Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tanlov
o'tkazish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasini berish
SXEMASI**

Bosqich	Subyektlar	Mexanizm	Muddatlar
1- bosqich	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish uchun tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tanlov bo'yicha hujjatlar Vazirlikning rasmiy veb-sayti, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlariga joylashtiriladi.	Loyihalarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida 12 ish kuni va ko'pi bilan 30 ish kunidan oldin
2- bosqich	Nodavlat notijorat tashkiloti	Tanlovda ishtirok etish uchun tegishli hujjatlarni elektron shaklda maxsus axborot resursi orqali tegishli Vazirlikka taqdim etadi.	Loyihalarni qabul qilish muddati tugaydigan sanagacha
3- bosqich	Jamoatchilik kengashi	1. Tanlov g'olibini nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tanlovga taqdim etilgan loyihalarni ko'rib chiqish va baholash natijalariga ko'ra aniqlaydi. 2. Jamoatchilik kengashi qarorini bayonnoma bilan rasmiylashtiradi.	10 ish kuni ichida 1 ish kuni ichida
4- bosqich	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Vazirlik va tanlovda g'olib deb topilgan nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish shartnomasi tuziladi.	10 ish kuni ichida

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligida ijtimoiy ahamiyatga
molik loyihalarni amalga oshirish
tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ilova

Davlat ijtimoiy buyurtmasini joylashtirish tanlovida ishtirok etish uchun

ning

(nodavlat notijorat tashkilotining nomi)

ARIZASI (BUYURTMASI)

Ariza yuborilayotgan tanlovning mazmuni	
Davlat tashkilotining nomi	
Tanlovning yo'nalishi	
Loyihaning nomi	
Ariza taqdim etgan tashkilot nomi (<i>davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nizomga muvofiq</i>)	
Hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman) nomi	
Ariza beruvchi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar (<i>ariza beruvchining yuridik manzili, telefon, faks, elektron pochta</i>)	
Tashkilot rahbarining F.I.O., boshqa zarur ma'lumotlar (<i>yashash manzili, elektron pochta, telefon kodi bilan to'liq ko'rsatilishi lozim</i>)	
Tashkilot buxgalterining F.I.O., boshqa zarur ma'lumotlar (<i>yashash manzili, elektron pochta, telefon kodi bilan to'liq ko'rsatilishi lozim</i>)	
Tashkilotning tasdiqlangan shtat jadvalidagi lavozimlar soni	
Loyihani amalga oshirish muddati (<i>boshlanish sanasi — tugatish sanasi</i>)	
So'ralayotgan mablag' miqdori (<i>so'm</i>)	
Jalb qilinadigan mablag'larning miqdori (<i>so'm</i>)	
Muammoning qo'yilishi (<i>mavjud ijtimoiy muammo, uning ahamiyati va loyihani amalga oshirish zarurligini bayon etish, bir varaqdan ortiq bo'lmasligi lozim</i>)	
Loyihaning maqsadi (<i>loyiha natijasida erishadigan ko'pi bilan 3 ta asosiy maqsad</i>)	
Loyihaning asosiy vazifalari (<i>loyihani amalga oshirish natijasida hal etiladigan ko'pi bilan 3 ta asosiy vazifa</i>)	
Loyihani amalga oshirish shakli va mexanizmlari (<i>loyihani amalga oshirish usullari, miqdor va sifat ko'rsatkichlari</i>)	
Loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar (<i>erishiladigan samaraning miqdori va sifat ko'rsatkichlari hamda ta'siri</i>)	

Ariza beruvchining mazkur sohadagi tajribasi (<i>talabgorning faoliyati, uning yutuqlari</i>)	
Hamkorlar va ularning vazifalari (<i>talabgor va uning sheriklarining aniq vazifalari ko'rsatilgan harakat rejasi</i>)	
Tashkilot va hamkorlarning qo'shgan hissasi (<i>jalb etilayotgan mablag'lar, resurslar, tashkilot va hamkorlarning moddiy va nomoddiy hissasi</i>)	

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligida ijtimoiy ahamiyatga
molik loyihalarni amalga oshirish
tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ilova

**Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan to'g'ridan to'g'ri
shartnoma tuzish orqali davlat ijtimoiy buyurtmasini berish
SXEMASI**

Bosqich	Subyektlar	Mexanizm	Muddatlar
1-bosqich	Nodavlat notijorat tashkiloti	Tashabbusli loyihani amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risida Vazirlikka loyiha taklifini kiritadi.	Yil davomida
2-bosqich	Jamoatchilik kengashi	1. Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan loyiha takliflarini ko'rib chiqadi va baholaydi. 2. Loyiha taklifi ijobiy baholangan taqdirda, ijtimoiy buyurtma berilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi.	10 ish kuni ichida 1 ish kuni ichida
3-bosqich	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Nodavlat notijorat tashkiloti	Vazirlik va nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish shartnomasi tuziladi.	10 ish kuni ichida

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligida ijtimoiy ahamiyatga
molik loyihalarni amalga oshirish
tartibi to'g'risidagi nizomga
4-ilova

**Tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy
buyurtmasini olish to'g'risida**

ning

(nodavlat notijorat tashkilotining nomi)

LOYIHA TAKLIFI

Loyiha taklifi yuborilayotgan tashabbusli loyiha mazmuni	
Davlat tashkilotining nomi	
Loyiha taklifining yo'nalishi	
Loyiha taklifining nomi	
Loyiha taklifini taqdim etgan tashkilot nomi (ta'ris hujjatiga muvofiq)	
Hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman) nomi	
Loyiha taklifini beruvchi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar (ariza beruvchining yuridik manzili, telefon, faks, elektron pochta)	
Tashkilot rahbarining F.I.O., boshqa zarur ma'lumotlar (yashash manzili, elektron pochta, telefon kodi bilan to'liq ko'rsatilishi lozim)	
Tashkilot buxgalterining F.I.O., boshqa zarur ma'lumotlar (yashash manzili, elektron pochta, telefon kodi bilan to'liq ko'rsatilishi lozim)	
Tashkilotning tasdiqlangan shtat jadvalidagi lavozimlar soni	
Loyiha taklifini amalga oshirish muddati (boshlanish sanasi - tugatish sanasi)	
So'ralayotgan mablag' miqdori (so'm)	
Jalb qilinadigan mablag'lar miqdori (so'm)	
Muammoning qo'yilishi (mavjud ijtimoiy muammo, uning ahamiyati va loyiha amalga oshirish zarurligini bayon etish, bir varaqdan ortiq bo'lmasligi lozim)	
Loyiha taklifining maqsadi (loyiha natijasida erishadigan ko'pi bilan 3 ta asosiy maqsad)	
Loyiha taklifining asosiy vazifalari (loyiha taklifini amalga oshirish natijasida hal etiladigan ko'pi bilan 3 ta asosiy vazifa)	
Loyiha taklifini amalga oshirish shakli va mexanizmlari (loyiha taklifini amalga oshirish usullari, miqdor va sifat ko'rsatkichlari)	

Loyiha taklifini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar (erishiladigan samaraning miqdori va sifat ko'rsatkichlari hamda ta'siri)	
Loyiha taklifini beruvchining mazkur sohadagi tajribasi (talabgorning faoliyati, yutuqlari)	
Hamkorlar va ularning vazifalari (talabgor va uning sheriklarining aniq vazifalari ko'rsatilgan harakat rejasi)	
Tashkilot va hamkorlarning qo'shgan hissasi (jalb etilayotgan mablag'lar, resurslar, tashkilot va hamkorlarning moddiy va nomoddiy hissasi)	

Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorligini aniqlash METODIKASI

T/r	Indikator	Mezonlar	Ko'rsatkichlar
1.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari doirasida loyihada belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilganligi.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari doirasida loyihada belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilganlik darajasi baholanadi. Ball maqsad va vazifalarning necha foizga bajarilganligiga qarab beriladi. Masalan: 1000 nafar ehtiyojmand shaxslarni kasb-hunarga o'qitish belgilangan bo'lib, ulardan 300 nafari o'qitilgan bo'lsa, shunda maqsad va vazifalarning 30 foizi bajarilgan hisoblanib, 3 ball beriladi.	– 81 foizdan 100 foizgacha – 6 ball; – 61 foizdan 80 foizgacha – 5 ball; – 41 foizdan 60 foizgacha – 4 ball; – 21 foizdan 40 foizgacha – 3 ball; – 20 foiz va undan kam – 0 ball.
2.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi shaklida ajratilgan mablag'larning to'g'ri ishlatilganligi.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi shaklida ajratilgan mablag'larning to'g'ri ishlatilganlik darajasi loyihaning byudjetida belgilangan taqsimotdan jami summaga nisbatan necha foizga chetga chiqqanligiga qarab baholanadi. Masalan, jami 20 mln so'm ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'ning 1 mln so'm qismi ijtimoiy loyihaning byudjetida ko'rsatilmagan maqsad uchun ishlatilgan bo'lsa, 1 mln.ning 20 mln.ga nisbatan foizi (5%) mablag'larining noto'g'ri ishlatilganligi darajasini ko'rsatadi.	– 0 foiz – 6 ball. – 1 foizdan 10 foizgacha – 5 ball; – 10 foizdan 30 foizgacha – 3 ball; – 30 foizdan ortiq – 0 ball.
3.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida OAVlarda batafsil axborot e'lon qilib	Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari doirasida amalga oshirilgan ishlar (tadbirlar soni, ishtirok etgan maqsadli auditoriya, erishilgan natijalar,	– 20 tadan ortiq – 6 ball; – 15 – 19 ta – 5 ball; – 10 – 14 ta – 4 ball; – 6 – 9 ta – 3 ball;

	borilganligi.	ishlatilgan mablag‘lar va boshqalar) haqida har chorakda o‘zining rasmiy veb-saytida yoki ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib borilganligi o‘rganiladi. Bunda fuqarolik jamiyati instituti tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o‘zining rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi e‘lonlar hisobga olinadi.	– 1 – 5 ta – 2 ball.
4.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi belgilangan muddatda amalga oshirilganligi.	Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy loyihada nazarda tutilgan tadbirlar davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish shartnomasida belgilangan muddatlarda amalga oshirilganligi holati baholanadi. Ball miqdori muddatdan qanchalik kechiktirilganligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish shartnomasida muddati uzaytirilgan bo‘lsa, uzaytirilgan muddat ham kechiktirilgan muddatga qo‘shib hisoblanadi.	– muddatida amalga oshirilsa – 6 ball; – 1 oygacha kechiktirilsa – 4 ball; – 1 oydan 2 oygacha kechiktirilsa – 2 ball; – 2 oydan 3 oygacha kechiktirilsa – 1 ball; – 3 oydan ortiq muddatga kechiktirilsa – 0 ball.
5.	Ijtimoiy loyihaning davom ettirilayotganligi.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan ijtimoiy loyiha davom ettirilayotganligi aniqlanadi.	Ijtimoiy loyiha davom ettirilayotgan bo‘lsa – 6 ball; Ijtimoiy loyiha davom ettirilmayotgan bo‘lsa – 0 ball.